

O‘ZBEK DRAMATURGIYASINING TARAQQIYOTIGA BIR NAZAR

Tursunaliyeva Ruxshona

KIUT, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqish talabasi

Ilmiy maslahatchi: M.Abduraxmonova

***Annotatsiya:** Mazkur maqola o‘zbek dramaturgiyasining taraqqiyotiga bag‘ishlangan. Dramatik asarlarning o‘ziga xosligi ochib berilgan. Mashhur o‘zbek dramaturglari ijodi misolida o‘tgan asrdan boshlab bugungi kungacha dramaning taraqqiyotiga nazar tashlangan bo‘lib, dramalardagi hayot voqeligi dramatik obrazlar vositasida tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** drama, xarakterlar dramtizmi, kolliziya, minimalizm, mavzular rang-barangligi, zamonaviy teatr texnologiyalari.*

O‘zbek dramaturgiyasi bir asrlik yo‘lni bosib o‘tdi. U yuz yil davomida mumtoz adabiyot va folklor a‘nanalariga suyandi, jahon dramaturgiyasining yetuk namunalaridan oziqlandi, keng taraqqiyot yo‘liga chiqib oldi. Zamondoshlarning psixologiyasini, dunyoqarashini tarbiyalashda muhim rol o‘ynadi, davr bilan hamnafas bo‘ldi. U xalq teatri, ayniqsa, qiziqchilik va qo‘g‘irchoq teatri hamda turli an‘anaviy sayl-tomoshalar muhitida shakllandi. Shu tariqa, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi sharoit dramatik asarlarning yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. “Dramada inson hukmronlik qiladi”. Shu bois inson talqini va u bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish bugungi kunning ham dolzarb masalalaridan biridir.

Dramaturgiyaning taraqqiyot tamoyillariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, u bir qancha yo‘lni bosib o‘tganligiga guvoh bo‘lamiz. Xarakterlar dramtizmi orqali jamiyat joriy xolati badiiy tadqiq etilishi, muallif fikr-o‘ylari va ruhiyat-hollarining qahramon qalbiga singdirilishini o‘rganish insonning ma‘naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos xususiyatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun adabiyotshunoslik fani o‘z obyektida hamisha yangicha nigoh bilan qarash, dramaturgiya poetikasiga daxldor muammolarni teran anglash yo‘lidan boradi.

“Biz milliy ma‘naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘yar ekanmiz, bugungi kunda ma‘naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir o‘tkaziladigan barcha omil va mezonlarni yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi”.

1990-2020-yillar oralig‘i o‘zbek dramaturgiyasi uchun alohida davr bo‘ldi. Bu yillarda jamiyatda sodir bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy o‘zgarishlar sahna asarlarida o‘z ifodasini topdi. Yangi mavzular, erkin badiiy shakllar, individual ruhiy kechinmalar tasviri kuchaydi.

Zamonaviy dramaturglar inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur falsafiy nuqtai nazaridan yoritishga intiladilar. 1990-yillardan boshlab

dramaturgiyada mafkuraviy bosimning yo‘qolishi ijodkorlarga erkinlik berdi. Shu bilan birga, dramaturgiyada yangi avlod vakillari – Usmon Azim, Qo‘chqor Norqobil, Erkin Azim, Shuhrat Rizaev, Uchqun Nazarov, Sarvar Azimov singari ijodkorlar paydo bo‘ldi.

Bu davrda o‘zbek dramaturgiyasida quyidagi asosiy o‘zgarishlar kuzatildi:

- Mavzular kengaydi – tasviriy, falsafiy, ruhiy, ma’naviy masalar ko‘tarildi;
- qahramon obrazlari chuqurlashdi, oddiy mehnatkash emas, balki o‘z yo‘lini izlayotgan shaxslar sahnaga chiqdi;
- dialoglar falsafiy tus oldi, ichki monologlar kuchaydi.
- yangi sahna shakllari – minimalizm, ramziy ko‘rinishlar, zamonaviy teatr texnikalari paydo bo‘ldi.
- milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashdi.

“Mustaqillikdan keyingi dramaturgiyada inson ruhiyati, ichki kechinmalar tasviri markazga chiqdi. Endi dramaturg sahnada voqealikni ko‘rsatish bilangina cheklanmaydi. Balki, tomoshabinga falsafiy savollar beradi”.

Usmon Azim – mustaqillik davri dramaturgiyasining etuk vakili. Uning “Bir qadam yo‘l” dramasi zamonaviy insonning hayotiy tanlovi ruhiy kechinmalari, axloqiy mas’uliyatini chuqur ochib beradi. Aslida, dunyoga kelish va ketish onlari qisqa fursat bo‘lib, foniy dunyo imtihonidan o‘tish dushvor sanaladi. Ota-ona farzandini go‘dakligidan parvarish qilar ekan, bor mehri-muhabbatini unga ulashadi. Uch o‘g‘il: Jo‘ra, Shokir, Qosim bir oilada voyaga yetsa ham hayotga turlicha munosabatda bo‘ladi.

Jo‘ra ziynatidagi to‘g‘rilik, odillik, fidoyilik, raislik faoliyatida, hamqishloqlar e’tirofida ayonlashib boradi. Ko‘pning haqqi, xalqning mulkiga xiyonat qilmaslikka intilgan rasining ayoli Saodat ro‘zg‘or ishlaridan ortmaydigan mehnatkash xotin timsolida yoritiladi. Shokir esa harom tijoratning orqasidan shahar bo‘yiga aylangan, qishloqdagi mansabdorlar bilan giyohvandlik savdosiga bosh bo‘lgan takabbur o‘g‘il. Ayoli beg‘am edi, qishloq bog‘i adirlarida o‘zini erkin his etadigan inson. Jo‘ra va Shokir dialogida boyluk iztirobi, nafs xuruji, farzandlik burchi borasidagi qarashlar muhokama etiladi. Afg‘on qatnashchisi Qosim esa urush oqibatida nogiron bo‘lib, bo‘ydoq yashashga mahkum yigit. Undagi alamzadalik, nashavandlik aslida urushdagi jaholat asoratidir. Mard, dovyurak insonni urush sindirib, yakson etadi. Oilaviy baxtidan mahrum aylaydi, bu yigit afg‘on qatnashchilarining umumlashma obrazi sifatida harakatlanadi. Dramada otaning keksayib, dilbandlari oqibati muruvvatidan ilinj kutishi asnosida ayonlashib boradi. Usmon Azim ko‘plab hayot hodisalarini sinchiklab kuzatib, xalq orasidagi turli toifa insonlar ruhiyatini voqealar silsilasida yoritib beradi. Dramada bog‘ uy, vatan timsoli; uning bag‘rida halol ham, harom ham unaveradi.

Qariyaning Samarqandga borish orzusini o'g'illar anglamaydi., doim band bo'lgan farzandlar ota rayiga qarash, ziyorat istagi ro'yobga chiqarishni hattoki o'ylab ham ko'rishmaydi. Tiriklik diyorini intihosiga kutayotgan o'ta sokin holda hayot bilan vidolashadi. Usmon Azim sahna tilida ruhiy koliziyalarni ko'rsatishda o'ziga xos uslub yaratadi. Uning "Bir qadam yo'l" dramasi tomoshabinni o'ylashga, o'z hayotini baholashga undaydi.

Bundan tashqari, Qo'chqor Norqobil – zamonaviy o'zbek dramaturgiyasiga hissasini qo'shadi. Qo'chqor Norqobilning "Quyoshni sen uyg'otasan" dramasi ijtimoiy muammo bir oilani yoritib beradi. Bunda o'tish davri voqeligida ishsizlikni hal qilishning ikki yo'li ko'rsatiladi. Er Qodir oilasini tashlab, Rossiyaga katta daromad ilinjida ishga ketadi. Xotini Shabnam esa farzandlari bilan qishloq sharoitida mashaqqatga bardoshi, shijoati bilan o'zini namoyon etadi. Undagi ishonch, farzandlik hamqishloq ayollarni ruhlantiradi. Dramaturg yurtlarda boriga shukur qilib, halol mehnati bilan jamiyatda o'z o'rnini topayotgan ishbilarmon ayollar obrazini yaratishga sazovor bo'ldi.

Dramaturgiyada tarix haqiqatidan saboq olish, milliy qadriyatni targ'ib qilish, inson va jamiyat munosabatidagi o'zgarishni tabiiy tasvirlashga doim ahamiyat qaratilgan. Usmon Azimning "Kunduzsiz kechalar" "Adibning umri" asarlarida tarix sahifalaridagi ma'naviyat posbonlari hayot maslagi varaqlanadi. Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon hayoti va ijodiga oid nazmiy, nasriy asarlar yaratilgani ma'lum.

Usmon Azim va shaxslarning ma'naviy estetik qarashlarini dramatik tur imkonida taqdim etgan.

"Kunduzsiz kechalar" dramasi kishan kiymay, bo'yin egmay o'z oliy maslagi yo'lida dadil harakat qilgan shoir, adib Cho'lpon siymosi badiiy gavdalantiriladi. Farzandlarning o'ta rayiga qarash, zirat istagini ro'yobga chiqarishni hattoki o'ylab ham ko'rishmaydi. Tulkilik diyorining intihosiga ketayotgan o'ta sokin holda hayot bilan vidolashadi.

Bundan tashqari, Qo'chqor Norqobil – zamonaviy o'zbek dramaturgiyasiga hissasini qo'shadi. Qo'chqor Norqobilning "Quyoshni sen uyg'otasan" dramasi ijtimoiy muammo bir oilani yoritib beradi. Bunda o'tish davri voqealigida ishsizlikni hal qilishning ikki yo'li ko'rsatiladi. Er Qodir oilasini tashlab, Rossiyaga katta daromad ilinjida ishga ketadi. Xotini Shabnam esa farzandlari bilan qishloq sharoitida mashaqqatga bardoshi, shijoati bilan o'zini namoyon etadi. Undagi ishonch, bardamlik hamqishloq osmonida tong yulduzi tun zulmatiga barham beradi. Drammada "Go'zal" she'ridan parcha kiritilishi mazmun qatlamni boyitgan. Aslida go'zal timsolida shoir

yulduz, oy, quyoshi shamoldan so‘roqlagan, qalbidagi yashirin tuyg‘u ozod yurt paydo bo‘la boshlagan edi.

Qo‘chqor Norqobilning sahna asarlarida ramziy obrazlar chuqur falsafiy ma‘no kasb etadi. “Quyoshni sen uyg‘otasan” – bu tashqi voqelik emas, inson qalbining ichki quyoshi haqida asardir⁵.

Mazkur davr dramaturgiyasining yana bir muhim jihati – milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashgan holda falsafiy teranlik kasb etganidir. Mavjud izlanishlardagi nazariy umumlashmalar hamda ko‘p yillik kuzatuvlarimizga tayangan holda, istiqlol davri o‘zbek dramaturgiyasining to‘rtta muhim asosini belgilash mumkin. Bular:

a) istiqlol davri mafkurasining insonparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalari bilan fan, adabiyot va san‘atga bo‘lgan e‘tiborning davlat siyosati darajasida ko‘tarilishi;

b) folklor va mumtoz adabiyot an‘analarining davom etilishi;

d) o‘zbek dramaturgiyasi bir asrdan ortiq davrada to‘plagan ijodiy tajribalar;

e) jahon dramaturgiyasi ilg‘or yutuqlarining ijodiy o‘zlashtirilishi.

Kuzatilganidek, dramashunoslikda istiqlol davri o‘zbek dramaturgiyasining ayrim namunalari tahlilga tortilgan bo‘lsa-da, davr va shaxs faoliyatini yangicha talqin qilish muammosi hanuzgacha maxsus o‘rganilmagan.

Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida davr fojiasi va shaxs qismati qayta idrok etilgani, tarixiy shaxslar hayoti hamda zamonaviy mavzudagi dramalarda tasvirlangan muammolar orqali istiqlol davri o‘zbek dramaturgiyasi yetuk va nuqsonlarni belgilash, dramaturglarning badiiy – estetik konsepsiyasini aniqlash hamda dramaturgiya rivojidadagi munosib o‘rni va rolini ochib berishdan iborat.

Bundan tashqari, “She‘riy dramalar yangicha teatr ko‘rinishini yaratdi, endi teatrlar poetik, tushunarli va tomoshabinga yaqin jihatlarga ega bo‘ldi. Bu janr birinchi o‘rinda maishiy muammolarni emas, balki ma‘naoviy muammolarni yoritishni boshladi. “Muallifning badiiy to‘qimasi asosida ba‘zan zerikarli, aslida isyonkor tuyg‘ularni yuzaga chiqaradi”.

Ko‘rinadiki, she‘riy drama asosida ma‘naviy muammolar yotishi, “Lirik men” obrazi, isyonkor tuyg‘ularni ifoda etishi kabilar she‘riy dramaning spifikatsiyasini belgilab beradi. Yana bir nazariyasi oli Allardis Nikoll “Dramma nazariyasiga kirish” kitobida she‘riy dramaning ta‘sirchanlik kuchini ritm belgilashini asoslar ekan, tragediyaning kelib chiqishi, qo‘shiqqa bog‘lanishini, drama ilk marta ham she‘riy shaklda yozilganligini ta‘kidlaydi.

Eng muhimi, she‘riy dramadagi barcha hodisalar yaxlitdir, ular kundalik hayotda sodir bo‘ladi. Lekin bir vaqtning o‘zida, insoniyatning ichki dunyosini ham ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida she’riy dramaga asos solgan shoirdir. I. Sulton, H.Abdusamatov, T.Bobojev, I.Jabborov, H.Karimov, M.Alimev va boshqalar. Shuningdek, bugungi dramaturgiyada yosh avlod ijodkorlarning sahnaga dadil kirib kelayotgani ham quvonarli holatdir. Ular milliy a’nanalarni zamonaviy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos uslublarni yaratmoqda. Bu esa dramaturgiyaning kelajakdagi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Sababi, bu yo‘nalishda har bir asar – bu milliy ruh, zamon ruhi va insoniylik g‘oyalarining badiiy birlashmasidir.

Shunday ekan, 1990-2020-yillar oralig‘ida yaratilgan zamonaviy dramaturgiya nafaqat sahna san’atini, balki milliy adabiy tafakkurni ham yangi bosqichga ko‘tardi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov A. Yangi davr dramaturgiyasi. – Samarqand, 2019.– B. 142.
2. Белинский В. Собрание сочинений в трёх томах, т -2.М: ОГИЗ Госиздат художественной литературы., 1948. – С.14.
3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat. 2008. – B. 29. 108-B
4. Qodirova M.” Zamonaviy dramaturgiya masalalari.” – Toshkent, 2018. – B. 87
5. Karimov X.” O‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyoti.” – Toshkent: Fan, 2015. 123-B